

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
ZAMONAVIY MAKTABDA INTELLEKTUAL O'YINLARDAN
FOYDALANISH (6-sinf tarix darslari misolida)

Nuriddin Xolmatov- JDPI,
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o'qitish metodikasi (Tarix) magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish maqsadida qo'llaniladigan interfaol metodlar, jumladan maktabning 6-sinf o'quvchilari uchun intellektual o'yinlardan foydalanish samaradorligi xususida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, maktab, tarix, interfaol metod, Intellektual o'yin, Zakovat o'yini, Intellektual bellashuv o'yini, didaktik o'yinlar.

Annotation: In this article, the interactive methods used to improve the quality of education, including the effectiveness of using intellectual games for the 6th grade students of the school, are analyzed.

Keywords: Education, school, history, interactive method, Intellectual game, Zakovat game, Intellectual competition game, didactic games.

Аннотация: В данной статье анализируются интерактивные методы, используемые для повышения качества образования, в том числе эффективность использования интеллектуальных игр для учащихся 6-х классов школы.

Ключевые слова: Обучение, школа, история, интерактивный метод, Интеллектуальная игра, Заковать игру, Интеллектуальная соревновательная игра, дидактические игры.

Bugungi kunda jamiyatda inson faoliyatining keng tarqalgan sohalaridan biri bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va ekstremal vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmonida “Ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish” muhim maqsad ekanligi ko'rsatildi. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga

Тарих ва Жамият илмий журнали

individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish zarurligi ta'kidlandi.

Farmonda o'qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o'quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgani, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotganligi ko'rsatildi. Bu ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni jadallashtirishni taqozo etadi. Chunki ta'limga yangicha sifat bilan yondashmasdan turib hozirgi davr talablariga javob berish imkoni cheklanib qolaveradi. Bu maktab ta'limidagi barcha yaxshi jihatlarni, tajribalarni rivojlantirish asosida amaliyotda o'zini oqlagan, yangi g'oyalar va bilimlarni kengroq qo'llashni taqazo qiladi.

Albatta, har qanday jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti shu jamiyatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga beriladigan e'tibor darajasiga bevosita bog'liqdir. Jumladan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida bu xususda to'xtalar ekanlar "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat¹", - deb ta'kidlab o'tdilar. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davr talablaridan kelib chiqqan holda hozirgi kunda umumta'lim muassasalarida tarix fanini o'rganish jarayonida interfaol uslublar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb aytib o'tilmoqda². "Interfaol" – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari – bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarini tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman o'quvchi (talaba) larning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi³.

Dunyo ta'limining rivojlanish tendensiyalari negizida pedagogik ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini innovatsion tashkil etishni muvofiqlashtirish, har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni voyaga yetkazish, kompetensiyaviy

¹ Ш.М.Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

² N.A. Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva Innovasion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik Toshkent, 2016.

³ Aqchayev F.Sh. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar (o'quv uslubiy qo'llanma) JDPI. 2014. 17-b.

Тарих ва Жамият илмий журнаלי

yondashuvlar asosida zamonaviylashtirilgan tarbiya texnologiyalarini takomillashtirish vazifalari ustuvorlik qilinayotganligi aytib o'tilmoqda.

Ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari hisoblangan interfaol uslublari, ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llay bilish - dars jarayonidagi pedagogik mahoratni, bo'lajak o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, muloqot olib borish uslubi, nutq madaniyati, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarini tashkil etishi va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotini jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi. Ta'lim texnologiyalari o'qituvchining dars mashg'ulotlarini sifatli va mazmunli tashkil eta olishida muhim yordamchi vositalar sifatida ko'riladi.

O'yinlar o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini yorqin namoyon etishiga, shuningdek, qiziqishning, taraqqiyotning, to'g'ri dunyoqarashning shakllanishining, kelajakdagi kasbni qasddan va aniq tanlab olishning rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bunday tadbirlar qamrab olingan materiallarni birlashtirishga yordam beradi⁴.

Shu o'rinda intellektual o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Intellektual o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin xarakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin xarakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin xarakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi xarakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.⁵

Intellektual o'yinlar orqali o'quvchilarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. o'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Intellektual o'yinlarda tabiiy narsa va mavzulardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida intellektual o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Intellektual o'yinlarda quyidagi qoidalariga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.

⁴ <https://uz.tierient.com/orta-maktab-oquvchilari-uchun-intellektual-oyinlar/>

⁵ O.U.Xasanboeva, SH.K.Tashpulatova "Pedagogika". Toshkent-2007. 43-bet

6. O'z xatosini tan olish.

Pedagogik o'yinlar yangi uquv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, tinglovchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyorgarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida tinglovchilar turli xolatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Intellectual o'yinlarda o'quvchilarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa o'quvchilarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

6-sinf tarix fanini o'qitishda Blits o'yin va Zakovat o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari haqida so'z yuritishdan oldin texnologiya atamasiga ta'rif bersak. «Texnologiya» - yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san'at va «logos» (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan.

“Zakovat” Intellectual o'yinini tashkil etish.

Ushbu o'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'yinga moslashtirish lozim bo'ladi. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, o'yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtiriladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni mohiyatiga qarab o'qib eshittiradi yoki “Zakovat sandiqchasi” olib chiqilishini aytadi yoki ekranda namoyish qilishni so'raydi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga kirishishadi. Bu o'yinni asosan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfidan yuqori sinflarida o'tkazish tavsiya etiladi⁶.

Zakavat o'yinlarida asosan, ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan fanlar va alohida mavzular mazmun-mohiyatini aks ettiradigan mantiqiy, ta'limiy savollar tuzilishiga diqqat qaratiladi⁷.

Quyida biz 6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan tarix (Qadimgi dunyo tarixi) fani doirasida tuzilgan “Zakovat o'yini” savollarini taqdim etamiz.

1. Savol Misrda Oddiy xalq o'z sadoqatini qanday ko'rsatgan?

Javob: Fir'avnlarning oyoq izlarini o'pgan.

2. Savol: Qaysi mashhur firavnni 160 nafar farzandi bo'lgan?

Javob: Ramzes II ning

⁶ F.Axmedshina, F.Aqchayev, Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2018. 33-bet

⁷ F.Axmedshina, F.Aqchayev, Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2018. 34-bet

Тарих ва Жамият илмий журнали

3. Misr fir'avnlaridan biri Amenxotep IV, fir'avnlar Ichida birinchi bo'lib, u fikrni inkor qildi. "U hech bir payg'ambar, hukmdor, malika va xaloyiqniki emas, u hammaniki"- degan? Savol: Amenxotep nimani hammaniki deb aytgan?

Javob: Quyoshni.

4. Qadimgi Misrda Lafu va Dendr ibodatxonalari boshqa ibodatxonalarga qaraganda Misr dehqonlari tomonidan ancha hurmat va ehtirom qilinardi.

Savol: Bu ibodatxonalar nimasi bilan boshqa ibodatxonalardan farq qilardi?

Javob: Zikkuratlarning joylashganligi tufayli

5. Misrda bu so'z "quyosh shu'lasini" degan ma'noni anglatadi, misrliklar shu nomli xudoga ham sig'inishgan. Savol: Bu qanday so'z?

Javob: Aton

Interfaol TT ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi hamda o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahsmunozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan belgilanadi⁸.

Intellectual o'yinlardan 6-sinf tarix darslari uchun "Intellectual bellashuv o'yini" hisoblanadi. Intellectual bellashuv o'yinini o'tkazishdan asosiy maqsad shuki, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda quyidagi xususiyatlarga ega.

O'quvchilarning ilmiy dunyo qarashini, buyuk vatandosh allomalarga hurmat tuyg'usini shakllantirish, milliy g'urur ruhini tarbiyalash;

O'quvchilardagi mas'uliyat, burch, vatanparvarlik, do'stlik hislarini tarbiyalash, fanlararo integratsiya jarayonini o'rnatish.

O'yin davomida foydalaniladigan vositalar:

- Tarqatma materiallar
- Kompyuter, interaktiv doska

O'yinli texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni olib borishni ham faol o'qitish shakllaridan biri deb atash mumkin. Bunday darslar o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy yondashuvini, o'quvchilarning faolligini va fanni yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. O'yinli texnologiyalar natijasida o'quvchilarning bilish faoliyati rivojlanadi, o'quv materialini o'rganishga qiziqishi oshadi va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Kuzatishlarimizdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o'yinli texnologiyalaridan keng foydalanish ta'lim oluvchilar

⁸ <http://www.hozir.org/intelektual-bellashuv-oyini.html>

Тарих ва Жамият илмий журнали

nutqidagi, o'zligini ko'rsata olish imkoniyatidagi bir qancha kamchiliklarni bartaraf etishda yaxshi samara beradi. Zero, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri aynan yosh avlodni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatishdir⁹.

Ma'lumki, o'yin turli ta'limiy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular aqliy, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadlarda qo'llaniladi. O'yinning aqliy maqsadi bilimlar doirasi, bilim faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim hamda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

Tarix o'qitish jarayoniga aynan mos keluvchi aqliy o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va o'zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkonini beradi. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda uning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini beradi. Aqliy o'yinlar o'qitish sifatiga va mavzuni qiziqarli, tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. O'quvchilar g'olib chiqish maqsadida berilgan har bir topshiriqni astoydil bajaradilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish ortib boradi. Aqliy o'yinlar darsning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, tarix fanini o'qitishda virtual taqdimotlardan ham foydalangan holda tashkil etilsa, o'quvchilar uni uzoq vaqt xotiralarida saqlaydilar. Darslarni tashkil qilishd ko'rgazmali dasturli tasvirlardan foydalanilsa, tasavvurlar yanada yorqin va tushunarli bo'ladi. Kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblangan axborot kommunikasion texnologiyadan foydalanishda ijobiy omillar kuzatiladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, aqliy o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga ishtiyoq bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. Aqliy o'yinlar jarayonida o'quvchilarda uyushqoqlik, vaqtni tejay bilish xislatlari tarbiyalaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir maktabda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa sifatida belgilangan. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borish orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi¹⁰.

⁹ F.Axmedshina, F.Aqchayev, Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2018. 86-bet

¹⁰ Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari // 2-sonli respublika ilmiy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami. 25-iyul 2020-yil. 59-b.

Тарих ва Жамият илмий журнаלי

O'quvchining mustaqil ta'lim olish rolini oshirish, yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi¹¹.

XXI asr globallashuv davri, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib, raqobat asriga aylanib borayotgan bir davrda intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash naqadar dolzarb ekanligini isbotlashga hojat yo'q, albatta. Chunki, bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. N.A. Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva Innovasion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik Toshkent, 2016.
2. F.Axmedshina, F.Aqchayev, Tarix fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish. Toshkent, 2018. 86-bet
3. Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari // 2-sonli respublika ilmiy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami. 25-iyul 2020-yil. 59-b.
4. O.U.Xasanboeva, SH.K.Tashpulatova "Pedagogika". Toshkent-2007. 43-bet

¹¹ Bozorov E.B., Musurmonova O.A. O'qituvchi ijodkorligi davr talabi. T.:O'qituvchi.1991